



**ANDIJON VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGINING CHORVACHILIK
TARMOG'INI STATISTIK MA'LUMOTLAR ASOSIDA IQTISODIY INDEKSLI
TAHLILI**

Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich,

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti

Katta o'qituvchi.

E-mail. idavlatbek15@gmail.com

Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti

O'qituvchi

E-mail. xmoydinov@gmail.com

ANNOTATSIYA. Mazkur maqola nafaqat ilmiy ahamiyatga ega, balki amaliy jihatdan viloyatdagi chorvachilik tarmog'ini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu maqolada Andijon viloyatidagi qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'i iqtisodiy indekslar usulida statistik tahlil qiligan.

Kalit so'zlar: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, dastlabki natijalar, hududlar, xo'jalik toifalari, metodologiya, milliy qishloq xo'jaligi statistikasi, tendensiyalar, statistik tahlil, iqtisodiy indeks, qishloq xo'jaligi kuzatuvlari, hajm indekslari, tarkib indeksi, o'sish sur'ati va zanjirli indekslar.

АННОТАЦИЯ. Данная статья имеет не только научное значение, но и способствует повышению эффективности и развитию животноводческой отрасли региона. В данной статье методом экономических показателей статистически анализируется животноводческий сектор сельского хозяйства Андижанской области.

Ключевые слова: сельское хозяйство, лесное и рыбное хозяйство, предварительные результаты, регионы, экономические категории, методология, национальная сельскохозяйственная статистика, тенденции, статистический анализ, экономический индекс, сельскохозяйственные наблюдения, индексы объема, индекс содержания, темпы роста и цепные индексы.



ABSTRACT. This article is not only of scientific importance, but also helps to improve the efficiency and development of livestock industry in the region. In this article, the livestock sector of agriculture in Andijan region is statistically analyzed by the method of economic indices.

Keywords: agriculture, forestry and fisheries, preliminary results, regions, economic categories, methodology, national agricultural statistics, trends, statistical analysis, economic index, agricultural observations, volume indices, content index, growth rate and chain indices

KIRISH

Qishloq xo'jaligi tarmog'i Respublikamizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanib, o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish bilan boshqa soha va tarmoqlardan afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Mazkur tarmoq yuqori salohiyatga ega bo'lib, unda ehtiyojlarni qondirish uchun zarur mahsulotlarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi korxonalarida samaradorlikni oshirish va aholi turmush darajasini yaxshilash uchun ulkan imkoniyatlar mavjud¹.

Qishloq xo'jaligi har qanday mamlakat milliy iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidir. U qishloq xo'jaligiga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotdagi asosiy o'rni oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishdan iboratdir.

Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish xalqimizni arzon va sifatli go'sht hamda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ayniqsa, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqarolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko'paytirishda muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda ushbu sohada zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va ularning turlarini kengaytirish bo'yicha tub islohotlar amalga oshirildi. Bu sa'y-harakatlar natijasini har bir chorvador o'z faoliyatida sezmoqda va his etmoqda.

Xususan, chorvachilik tarmog'i oxirgi olti yilda islohotlarga yuz tutdi. O'tgan davrda agrar tarmoqda katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'ldi. Ko'p yillar davomida chorvadorlarni o'ylantirib, tashvishga solib kelgan muammolar qisqa fursatda hal etildi, ularning xohish-istaklari, orzu-umidlari ro'yobga chiqa boshladi.

2022 yil 8 fevral kuni qabul qilingan "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori² sohada boshlangan islohotlarning uzviy davomi sifatida mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarini

¹ Zakhidov, D. G., & Iskandarov, D. K. (2019). Empirical likelihood confidence intervals for truncated integrals. In *Applied Methods of Statistical Analysis. Statistical Computation and Simulation-AMSA'2019* (pp. 102-104).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.02.2022 yildagi PQ-121-son



yanada rivojlantirishga qaratilgan qator istiqbolli chora-tadbirlarni belgilab berdi. Buni sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari kayfiyatida ham sezish mumkin.

Shuningdek, chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, chorva ozuqa bazasini ko'paytirish, shuningdek, aholining o'z xonadonida chorva mollari boqishini tashkil etish va chorva ozuqa bazasiga bo'lgan talabni qondirish borasida qulayliklar, imtiyozlar, moliyaviy ko'mak va imkoniyatlar yaratilmoqda³.

Chorvachilik xo'jaliklari tomonidan kredit va lizing shartlari asosida xarid qilingan qishloq xo'jaligi texnikalari kredit va lizing foizi xarajatlarining 10 foizidan ortiq qismi davlat budjeti hisobidan qoplab berilayotgani ham soha vakillariga katta ko'mak beryapti. Fermer xo'jaligi tomonidan xarid qilingan texnika uchun kredit yoki lizing yillik 22 foizdan olinsa, 12 foizi davlat budjeti hisobidan qoplanmoqda.

Bular hali hammasi emas. Bundan tashqari, xorijdan olib kelinadigan, ishlab chiqarilganiga 5 yildan oshmagan, ozuqa ekinlarini ekish, yig'ish va ozuqa tayyorlashga mo'ljallangan qishloq xo'jaligi texnikalari, ularning butlovchi buyumlari va ehtiyot qismlari, istisno tariqasida 2025 yil 1 martga qadar bojxona to'lovlaridan va utilizatsiya yig'imidan ozod qilinmoqda.

Tadbirkorlik subyektlariga "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab qo'shimcha qiymat solig'ini 180 kungacha bo'lgan muddatga kechiktirib to'lashga ruxsat berilyapti. Bu imtiyoz fermer xo'jaliklarining ko'plab zamonaviy texnika olib kirishi va ozuqa ekinlarini vaqtida yig'ib olishi natijasida faoliyati samaradorligi oshishiga xizmat qilayotir.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda respublikada jami 18 167 ta chorvachilik xo'jaliklari mavjud bo'lib, shundan qoramolchilik yo'nalishida 7 614, qo'y va echkichilik 3 263, yilqichilik 142, tuyachilik 52, parrandachilik 1 298, baliqchilik 4 829, asalarichilik 715 ta va quyonchilik 254 tani tashkil etmoqda⁴.

"O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident qarori ham ushbu sohada keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi⁵.

Natijada 2022 yilda chorvachilikda umumiy qiymati 9,7 trln so'mlik 2 031 ta loyihalar amalga oshirilib, 160 mingga yaqin doimiy va mavsumiy yangi ish o'rinlari yaratildi. Joriy yilning o'zida esa 915,4 mlrd. so'mlik 406 ta loyihalar ishga tushirildi.

³ Iskandarov, D. X. (2023). Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini statistik tahlil qilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari indeksi. *Science and Education*, 4(12), 686-693.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.09.2022 yildagi PQ-374-son

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.02.2022 yildagi PQ-120-son



E'tiborli jihati, ushbu Dastur doirasida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan 1,3 trln. so'mlik 43 ta chorvachilik komplekslari tashkil etilib, 26 ming boshga yaqin qoramollar parvarishi yo'lga qo'yildi. 2022 yilda 110 ta go'sht va 139 ta sut jami 249 mahsulotlarini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholi xonadonlariga kooperatsiya usulida 19,6 bosh chorva mollari tarqatib berildi.

Hozir mamlakatimizda sohada bo'layotgan keng ko'lamli amaliy ishlar, erishayotgan natijalar oxirgi olti yildagi yangilanishlar natijasi, desam mubolag'aga yo'ymang. Sababi so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlar, odilona siyosati tufayli ko'p yillar davomida chorvachilik sohasida to'planib qolgan masalalarga barham berildi⁶.

Bugun O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar shiddatidan odamning aqli shoshadi. Mamlakatimizda chorva ozuqa bazasini yanada ko'paytirish, chorva mollarining naslini yaxshilash, sohaga eng ilg'or usullarni joriy etishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilmoqda. Bularning barchasi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, chorvachilik mahsulotlari eksportini yanada oshirish, eng muhimi, narx-navo barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlilida ushbu xorijiy va mahalliy olimlar ishlari o'rganildi.

P. Laspeyres va E. Paasche. Iqtisodiy indekslar nazariyasining asoschilaridan bo'lib, **Laspeyres indeksi** va **Paasche indeksini** yaratgan. Bu indekslar turli davrlardagi narxlar va hajmlar dinamikasini solishtirish uchun asos bo'lgan. Chorvachilik va boshqa tarmoqlarda indeks tahlillarini qo'llash usullarini rivojlantirgan.

F. Divisia. Dinamik iqtisodiy tizimlar uchun zanjirli indekslar usulini ishlab chiqqan. U chorvachilik yoki qishloq xo'jaligida o'zgaruvchan ma'lumotlarni solishtirishda keng qo'llanilgan.

A. Chayanov. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik tahlilida indeksli yondashuvni qo'llashni tavsiya qilgan. U qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmi va resurslardan foydalanish samaradorligini baholashga e'tibor qaratgan.

M. G'ulomov va A. Sattorov. Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishda iqtisodiy indekslar yordamida hisob-kitoblarni amaliyotga joriy etish bo'yicha ishlagan. Ular chorvachilik tarmog'ini iqtisodiy tahlil qilishda Laspeyres va Paasche indekslarini qo'llashni taklif qilgan.

R. Ahmedov. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligi va qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy omillarni statistik va indeksli tahlil orqali baholash bo'yicha ishlar olib borgan.

⁶ Dilshodbek, G., & Iskandarov, D. X. (2021). CHIZIQLI REGRESSIYANI QISHLOQ XO'JALIGI MASALALARINI YECHISHGA QO'LLASH. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 801-807.



A. Qudratov. O'zbekistonning turli hududlarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlarini indekslar usuli yordamida tahlil qilgan. Uning ishlari mahsulot hajmini oshirish va resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Andijon viloyati chorvachilik tarmog'ining statistik ma'lumotlarini iqtisodiy indekslar usulida tahlil qilish orqali tarmoqning samaradorligi va istiqbollari aniqlash. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Chorvachilik mahsulotlari hajmi va tarkibini tahlil qilish.
2. O'sish sur'ati va zanjirli indekslar orqali yillik dinamikani baholash.
3. Tarkib indeksleri yordamida mahsulotlar ulushidagi o'zgarishlarni aniqlash.
4. Tavsiyalar ishlab chiqish.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sektorida chorvachilik muhim o'rin tutadi. Mamlakat aholisi go'sht, sut va boshqa chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning doimiy o'sishi sharoitida chorvachilik tarmog'ini barqaror rivojlantirish ustuvor vazifalardan biridir. Andijon viloyati o'zining qishloq xo'jalik ishlab chiqarish salohiyati bilan ajralib turadi, ammo bu hududda chorvachilikning samarali va ekologik jihatdan barqaror shakllarini rivojlantirish hali to'liq yo'lga qo'yilmagan⁷.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi sektoridagi chorvachilik tarmog'ini statistik tahlil qilishda biz iqtisodiy indekslardan bir nechtasini ishlatdik va natijalar bilan tanishib chiqamiz. Avval esa qaysi indekslardan foydalanganimizni keltirib o'tsak

Hajm indeksleri: Mahsulotlar turlari bo'yicha hajmlar o'zgarishini baholash. Bu indeks orqali hisoblashda hisob davri hajmi solishtirilayotgan davr hajmiga nisbati orqali hisoblanadi.

$$I_h = \frac{Hajm_{joriy\ yil}}{Hajm_{bazaviy\ yil}} \quad 1.1$$

Tarkib indeksleri: Tarkib indeksleri iqtisodiy ko'rsatkichlarning umumiy hajm ichidagi tarkibiy qismlarining ulushini aniqlashga xizmat qiladi. Tarkibiy o'zgarish indeksi:

$$I_s = \frac{S_t}{S_0} \quad 1.2$$

Bu yerda:

S_t - tahlil qilinayotgan davrdagi tarkib ulushi.

S_0 - bazaviy davrdagi tarkib ulushi.

⁷ Iskandarov, D. X. (2023). Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini statistik tahlil qilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari indeksi. *Science and Education*, 4(12), 686-693.



O'sish sur'ati va zanjirli indekslar: Yillar o'rtasida o'sish yoki pasayish dinamikasini aniqlash uchun xizmat qiladi. O'sish sur'ati iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishi yoki pasayishini foiz ko'rinishida baholaydi. Bu usul nisbiy o'zgarishni aniqlashda ishlatiladi.

$$T = \frac{Y_t - Y_{t-1}}{Y_{t-1}} \cdot 100\% \quad 1.3$$

$$I_z = \frac{Y_t}{Y_{t-1}} \quad 1.4$$

Bu yerda: 1.1 formula o'sish sur'ati indeksini, 1.2 formula esa zanjirli indeksni ifodalaydi
 Y_t - Joriy yil ko'rsatkichi.

Y_{t-1} - Oldingi yil ko'rsatkichi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda Andijon viloyatidagi chorvachilik sohasining statistik ma'lumotlarini keltirib o'tamiz. Ushbu jadvalda Andijon viloyatida so'yish uchun yetishtirilgan mollar, parrandalar va baliq maxsulotlari – jami (tirik vaznda) keltirilgan.

1.1 jadval

№	Mahsulot turi	O'lchov birligi	2021 yil	2022 yil	2023 yil
1	Andijon viloyatida so'yish uchun yetishtirilgan mollar, parrandalar va baliq maxsulotlari – jami (tirik vaznda)	ming tonna	20354,824	21739,425	21343
2	shu jumladan	x	x	x	x
3	yirik shoxli qoramollar	ming tonna	123,9	130,4	136,2
4	qo'y va echkilar	ming tonna	23,2	24,3	25,3
5	parrandalar	ming tonna	29,7	29,7	31,4
6	boshqa turdagi mollar (otlar, tuyalar, quyonlar va boshqalar)	ming tonna	0,024	0,025	0,1
7	ovlangan baliqlar	ming tonna	20178	21555	21150



1.1 jadval ma'lumotlari jadvalni tahlil qilish bo'yicha barcha ishlov berilgan natijalarni va o'sish indeksleri yordamida amalga oshirilgan tahlillarni to'liq taqdim etamiz.

Iqtisodiy indekslar usulida, quyidagi yondashuvlar asosida tahlil qilamiz: Har bir mahsulot turi bo'yicha yillar oralig'ida (2021, 2022, 2023) hajmlar o'zgarishini aniqlash uchun **o'sish indeksleri** hisoblandi:

2022/2021 Indeksi: 2022-yil hajmlarining 2021-yil hajmlariga nisbati.

2023/2021 Indeksi: 2023-yil hajmlarining 2021-yil hajmlariga nisbati.

2023/2022 Indeksi: 2023-yil hajmlarining 2022-yil hajmlariga nisbati.

Quyidagi natijalar asosida ma'lumotlarni qayta ishlab ushbu 1.2 jadvalga ega bo'ldik. Bu yerdagi hisob kitoblar **python** dasturlash tili asosida yuqoridagi formulalar asosida qayta ishlandi:

Jadval: O'sish indeksleri va hajmlar o'zgarishi

1.2 jadval

Mahsulot turi	O'lcho v birligi	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2022/2021 Indeksi	2023/2021 Indeksi	2023/2022 Indeksi
Jami (tirik vaznda)	ming tonna	20354.824	21739.425	21343	1.068	1.048	0.982
Yirik shoxli qoramollar	ming tonna	123.9	130.4	136.2	1.052	1.100	1.045
Qo'y va echkilar	ming tonna	23.2	24.3	25.3	1.047	1.090	1.041
Parrandalar	ming tonna	29.7	29.7	31.4	1.000	1.057	1.057
Boshqa turdagi mollar (otlar, tuyalar, quyonlar va boshqalar)	ming tonna	0.024	0.025	0.1	1.042	4.167	4.000
Ovlangan baliqlar	ming tonna	20178	21555	21150	1.068	1.048	0.981



Natijalar tahlili

1. Jami (tirik vaznda):

1. 2022-yilda jami go'sht mahsulotlari hajmi 2021-yilga nisbatan **6.8%** ga oshgan.
2. 2023-yilda esa 2021-yilga nisbatan **4.8%** lik o'sish kuzatilgan, ammo 2022-yilga nisbatan biroz pasayish (**1.8%**) qayd etilgan.

2. Yirik shoxli qoramollar:

1. 2021-yildan 2023-yilgacha hajmda uzluksiz o'sish kuzatilgan.
2. 2022-yilda hajm **5.2%** ga, 2023-yilda esa **10%** ga oshgan.

3. Qo'y va echkilar:

1. 2022-yilda hajm **4.7%** ga oshgan, 2023-yilda esa bu ko'rsatkich **9%** ga yetgan.
2. Qo'y va echkilar yetishtirish hajmining barqaror o'sishi kuzatilmoqda.

4. Parrandalar:

1. 2022-yilda o'sish kuzatilmagan (barqaror hajm), ammo 2023-yilda **5.7%** ga oshgan.

5. Boshqa turdagi mollar:

1. Boshqa turdagi mollar bo'yicha katta o'zgarishlar kuzatilmoqda: 2023-yilda hajm **416.7%** ga oshgan, bu esa sohada sezilarli rivojlanish borligini ko'rsatadi.

6. Ovlangan baliqlar:

1. 2022-yilda baliq mahsulotlari hajmi **6.8%** ga oshgan, ammo 2023-yilda bu hajm **1.9%** ga pasaygan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohot natijalari tezkor, aniq va haqqoniy statistik raqamlarda o'z ifodasini topadi. Statistik raqamlarning haqqoniy va shaffof bo'lishi hukumat tomonidan qishloq xo'jaligini isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Umumiy tahlil: Andijon viloyatida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda barqaror o'sish kuzatilmoqda, ayniqsa yirik shoxli qoramollar va qo'ylar bo'yicha.

Kamchiliklar: Ovlangan baliq hajmi va tirik vaznda jami mahsulotlarda 2023-yilda biroz pasayish bor.

Tavsiya: Baliqchilik va parrandachilik sohasida qo'shimcha resurslarni jalb qilish. Innovatsion texnologiyalar yordamida mahsulotlarning barqaror o'sishini ta'minlash. Boshqa turdagi mollar (yangi turdagi mahsulotlar) bo'yicha davlat dasturini qo'llab-quvvatlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:



1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni// Xalq so'zi, 29.01.2022-yil. TARMOQLAR VA SOHALAR
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi// Xalq so'zi, 20.12.2022-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni// Xalq so'zi, 24.10.2019-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori// Xalq so'zi, 04.08.2020-yil.
5. Iskandarov, D. X. (2023). Qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatini statistik tahlil qilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari indeksi. *Science and Education*, 4(12), 686-693.
6. Iskandarov, D., & Haydarov, M. (2022). TAQSIMOTNI NORMALLIKKA TEKSHIRISHDA MUVOFIQLIK ALOMATLARINING BA'ZI MASALALARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 405-408.
7. Dilshodbek, G., & Iskandarov, D. X. (2021). CHIZIQLI REGRESSIYANI QISHLOQ XO'JALIGI MASALALARINI YECHISHGA QO'LLASH. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 801-807.

